

Yakubov Odiljon Tolibjon o'g'li,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti



SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA FARZAND TARBIYASIGA OID FIKRLARNING IJTIMOIY PEDAGOGIK MOHIYATI

Annotatsiya. Maqolada sharq allomalari asarlarida yoritilgan farzand tarbiyasiga oid fikrlar tahlil qilingan. Farzand tarbiyasi jamiyatning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun asosiy vosita ekanligi haqida so'z yuritilgan. Bolada halollik, to'g'rilik, adolat, mehribonlik kabi go'zal sifatlar shakllanishida ota-ona unga beradigan tarbiyaning ahamiyati haqida so'z boradi.

Аннотация. В статье анализируются идеи воспитания детей, отраженные в трудах восточных ученых. Было отмечено, что воспитание детей является важнейшим инструментом духовного, нравственного и социально-экономического развития общества. В ней обсуждается важность родительского воспитания в формировании у ребенка таких прекрасных качеств, как честность, правдивость, справедливость и доброта.

Annotation. The article analyzes the ideas of Eastern scholars on child rearing. It is said that child rearing is the main tool for the spiritual, moral, socio-economic development of society. It discusses the importance of parental upbringing in the formation of such beautiful qualities as honesty, truthfulness, justice, and kindness in a child.

Tayanch so'zlar: tarbiya, odob-axloq, farzand, ota-ona, oila, qadriyat, yoshlik, jamiyat, mas'uliyat, halollik.

Ключевые слова: воспитание, нравственность, дети, родители, семья, ценности, молодежь, общество, ответственность, честность.

Keywords: upbringing, morality, children, parents, family, values, youth, society, responsibility, honesty.

Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad uzoq va yaqin tariximizda yashab o'tgan ajdodlarimizning farzand tarbiyasiga oid qarashlari, fikr va g'oyalarini tahlil qilishdan iborat. Ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida bola tarbiyasida oilaning muhimligi ta'kidlangan. Jumladan, Sh.Shodmonova o'zining ilmiy ishida oilaga xos bo'lgan an'analar, urf-odatlar bola shaxsini, dunyoqarashini shakllantirishi aytib o'tilgan.

Kirish. Farzand tarbiyalashning tarixiy asoslari o'zgarib, har bir tarixiy davrda jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib kelgan. Farzandni tarbiyalash bo'yicha tarixiy yondashuvlar ko'plab madaniyatlar va falsafalar tomonidan shakllantirilgan va o'zaro turlicha bo'lgan. Xususan, qadimda yashab ijod qilgan allomalarning asarlarida ilgari surilgan farzand tarbiyasiga oid fikrlar bugungi kunimizda ham dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori² va boshqa bir qator qonun hujjatlarida farzandlarimizning ta'lim-tarbiyasiga oid amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar keltirib o'tilgan.

Maqsad va uni asoslash. Ushbu maqoladan ko'zlangan maqsad uzoq va yaqin tariximizda yashab o'tgan ajdodlarimizning farzand tarbiyasiga oid qarashlari, fikr va g'oyalarini tahlil qilishdan iborat. Ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida bola tarbiyasida oilaning muhimligi ta'kidlangan. Jumladan, Sh.Shodmonova o'zining ilmiy ishida oilaga xos bo'lgan an'analar, urf-odatlar bola shaxsini, dunyoqarashini shakllantirishi aytib o'tilgan. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash pedagogik zaruriyat ekanligi, ota-onalar esa bu borada ma'lum bilimlarga ega bo'lishlari muhimligi ta'kidlangan. Bundan tashqari kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyasida oilaviy dam olish, ota-ona tomonidan turli qiziqarli o'yinlarni tashkil qilish, birgalikda dars tayyorlash va qiziqarli narsalarni o'qib, muhokama qilish, birgalikda sayrga chiqish ijobiy samara berishi aytilgan³.

X.Mamadaliyevaning fikricha, "Oilada har bir bolaning sog'lom o'sishi va shaxs sifatida shakllanishi uchun sog'lom muhit yaratiladi". Sog'lom muhit barqaror bo'lgan oilalar ijtimoiy barqarorlik, butun jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashning asosi hisoblanadi. Oila qadriyatlarining barqarorligini saqlab qolish o'sib kelayotgan avlod uchun ayniqsa muhimdir. Faqatgina to'liq oilada yashagan farzandlar ota-onaning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-5085887>

³ Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослар: пед. фан. номз. ...дисс. — Toshkent, 2001. — Б. 176.

yordami va qo'llab-quvvatlashini ko'rganda hotirjam bo'ladilar, o'zlarining kerakli va sevimli ekanliklarini his qiladilar. Ma'lumki, "oilada bolalarning qiziqishlari va talanti rivojlanishining ilk bosqichlari ko'zga tashlanadi va aynan oilada kelajakda ularni yanada rivojlantirish va amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratiladi"⁴.

Farzand tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish har bir ota-onaning mas'uliyatli burchidir. Oiladagi ma'naviy muhitni to'g'ri shakllantirish orqali tarbiya tizimini yo'lga qo'yish mumkin. Bolaning tarbiyasiga uning ota-onasi, oilaviy shart-sharoit, maktab, bog'cha va atrofdagi ijtimoiy muhit ko'p jixatdan ta'sir ko'rsatadi. Bu esa har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, izlanishlar olib borishni farzand tarbiyasiga oid bilimlarni oshirib borish va zarur ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Farzand tarbiyasi o'z ichiga pedagogika, tibbiyot, psixologiya kabi sohalarga oid bilimlarni qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Farzandga ta'lim-tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois oiladagi muhit, ota-onaning bolaga bo'lgan munosabati oilaviy turmush muhitiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ma'naviyatni shakllantirishga zamin bo'ladi. Jamiyat ma'naviyati farzand tarbiyasi va boshlang'ich ta'limda katta ahamiyatga ega. Farzandlarga milliy qadriyatlar, xususan, sharq allomalari qoldirgan boy meros asosida ta'lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' allomalarimiz asarlarida bolalarga go'daklik chog'idanoq kattalarga hurmat va keksalarni e'zozlash, ota-onaga alohida ehtirom ko'rsatish, o'zidan kichiklar izzatini o'rniga qo'yish kabi ajoyib qadriyatlarimizga tayanib ish ko'rishga chaqiriladi⁵.

Buyuk ajdodlarimiz farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, Imom al-Buxoriy, al-Farobiy, at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek kabi mutaffakirlar o'z asarlarida farzand tarbiyasida e'tibor qaratish zarur bo'lgan jixatlarni bayon qilganlar.

Abu Rayhon Beruniy tarbiyaning bir necha turlarini keltirib o'tgan. Xususan, farzand tarbiyasida aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi kabi jami tarbiya turlarini birgalikda olib borish zarurligini aytadi.

Farzandga ta'lim-tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois oiladagi muhit, ota-onaning bolaga bo'lgan munosabati oilaviy turmush muhitiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ma'naviyatni shakllantirishga zamin bo'ladi. Jamiyat ma'naviyati farzand tarbiyasi va boshlang'ich ta'limda katta ahamiyatga ega.

⁴ Мамадалиева Х. Ўзбекистонда оила ривожланишининг ижтимоий-демографик хусусиятлари: икт. фан. докт. ...дисс. — Toshkent, 2019. — Б. 314. // <https://diss.natlib.uz/tanishish/3fdaflf1-0f29-4c7d-a139-28c23d5423bc>

⁵ Жуманазаров У.А. Алломаларимиз ижоди ёрдамида ўқувчиларга таълим-тарбия бериш // "Абай Қўнонбеов ва шарқ мутаққиларининг педагогик қарашлари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. — Жиззах, 2020. — Б. 5.

***Buyuk olim
Abdurauf
Fitratning
fikricha, farzandni
to'laqonli kamol
toptirib o'stirish
uchun unga
jismoniy, aqliy
va ma'naviy
tarbiyadan iborat
ko'p tarkibli
tarbiya berish
muhimdir.
Fitrat bolaning
ruhiyatlarining
nisbati va o'zaro
bog'lanishi
masalasiga katta
e'tibor qaratgan.***

Alisher Navoiyning ta'kidlashicha, ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Ularga birdek xizmat qilish kerakligi, qancha ko'p xizmat qilingan bo'lsa ham bu xizmatlarni ular uchun oz deb bilish kerakligi aytiladi. Farzand ikki dunyosi obod bo'lishini istasa ota-onasining roziligiga erishishi, birini tunu-kun nur berib turgan oy, birini esa quyosh deb bilishi, ularning xizmatini odob bilan bajarish kerak bo'ladi.

Qomusiy olim Mirzo Ulug'bek bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi va havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozimligini uqtiradi⁶.

Abdulla Avloniy farzand tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni aytib o'tgan. Xususan, alloma tarbiyaga "Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" deya tarif beradi. Shu bilan birga, farzand tarbiyasini tug'ilgan kundan boshlash kerakligi, buning uchun inson vujudini ilm bilan quvvatlantirishi, fikrini nurlantirishi, axloqini go'zallashtirishi, zehni tiniqlashtirishi lozimligi ta'kidlagan. Avloniy aytadiki, "badan tarbiyasi badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq, o'rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad lozimdir. Zero, sog' badanga ega bo'lmagan inson amallarda, ishlarida, ibodatlariga kamchilik qilurlar. Fikr tarbiyaning eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga olganda fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Axloq tarbiyasi esa insonlarga eng muhim ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi tarbiyadir⁷.

Buyuk olim Abdurauf Fitratning fikricha, farzandni to'laqonli kamol toptirib o'stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma'naviy tarbiyadan iborat ko'p tarkibli tarbiya berish muhimdir. Fitrat bolaning ruhiyatlarining nisbati va o'zaro bog'lanishi masalasiga katta e'tibor qaratgan. Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqilli qilib tarbiyalash uchun, o'z qadr-qimmatini, shanini hurmat qilishni o'rgatishi, shu bilan birga yonatrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi. Olim yana aytadiki, bolaning kelajakda qanday shaxs bo'lib ulg'ayishida, unga onasi tomonidan nima berilganligiga bog'liqdir⁸.

⁶ Мўминова Л.Р., Реджабаева М.З., Махмудова Д.А., Холикова М.К., Рахимова С.О., Ярашева Ш.А. Иктидорли болаларни тарбиялашда ота-оналик кўникмаларини шакллантириш: услубий қўлланма. – Тошкент, 2020. – 36 б.

⁷ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq: risola. – Toshkent, 2004. – 96 б.

⁸ Фитрат А.. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент, 2000. – 112 б.

Tarixiy asarlardan hisoblangan Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham farzand tarbiyasiga oid juda ko‘p yaxshi fikrlar mavjud. Kaykovus o‘zining hayotiy tajribalari bilan o‘g‘li Gilon shohni tarbiyalashni istaydi va o‘zining pand-nasihatlarini o‘g‘li uchun eng qimmatbaho meros ekanligini ta’kidlaydi. U o‘z asarida tarbiyaga alohida e’tibor qaratib, tarbiyani inson aqlini va shaxsiy hayotni shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Bunda inson ruhiyatini yuksaklarga ko‘tarishni ilgari suradi, salbiy illatlarning sabablarini izlaydi. Xususan, insonni tarbiyalashda hayotda tarbiyaning ta’sir o‘rni yuqori ekanligini e’tirof etishni burch deb biladi. Uning fikricha, yoshlarga tarbiya berishdan maqsad ularni nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir. Shuning uchun muallif asarda yoshlarning xulq-atvoriga, fe’liga alohida e’tibor beradi. Shuningdek, do‘st-dushmanga ham qanday munosabatda bo‘lish kabi masalalarni ham yoritgan. Bola boshidan deyilganidek, farzandni tug‘ilgandan tarbiyalash, odob-axloq me’yorlarini o‘rgatish, ilm-hunarli qilish, bolaning mehnatga bo‘lgan ko‘nikmasini hosil qilish zarurligini, aks holda, “kechikkan” tarbiyaning hech bir ta’siri bo‘lmay, zarur samarani bermasligini aytib o‘tgan. Kaykovus o‘g‘lini xalqqa yaqinlashishga, uning manfaatini ko‘zlashni farzandiga uqtiradi: “Xalqning ozgina yaxshiligini ko‘p ko‘rgil, qaysi narsa xalq manfaatiga yaqin turishini o‘rgan”, – deydi. “Qobusnoma”da yoshlikda bor kuch-quvvatni bilim olish, kasb-hunar o‘rganishga sarflash ayni muddao ekanligi ta’kidlangan⁹.

Dastlabki davrlarda bolalarni tarbiyalash ko‘pincha diniy, ijtimoiy va mehnatga tayyorlash maqsadida amalga oshirilgan. Keyinchalik pedagogika va psixologiyaning rivojlanishi bilan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalashning ilmiy yondashuvlari yuzaga keldi. Bugungi kunda tarbiyachilar va ota-onalar tarbiyaviy ishlarni olib borishda ajdodlarimizning farzand tarbiyasiga oid boy ma’naviy meroslaridan foydalanishlari ijobiy samara beradi deb o‘ylaymiz. Shu bilan birga farzand tarbiyasining asosiy tamoyillari, jumladan, bolaning tabiiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish ustuvor ahamiyatga ega.

Yakuniy qism. Yuqorida o‘rganilgan fikrlar tadqiqidan kelib chiqib, ajdodlarimizning farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashganliklarini, oiladagi tarbiyani o‘z vaqtida va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda jiddiy e’tibor berish kerakligi kelib chiqadi. Hozirgi kunda maktabgacha va

Dastlabki davrlarda bolalarni tarbiyalash ko‘pincha diniy, ijtimoiy va mehnatga tayyorlash maqsadida amalga oshirilgan. Keyinchalik pedagogika va psixologiyaning rivojlanishi bilan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalashning ilmiy yondashuvlari yuzaga keldi.

⁹ Кайковус. Қобуснома. – Тошкент, 2016. – 224 б. // В.Малоҳат. “Qobusnoma” asarida yoshlar tarbiyasi. <https://uzhurriyat.uz/2017/09/07/qobusnoma-asarida-yoshlar-tarbiyasi/>

maktab ta'limi sohasida olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib farzandlar tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rish mumkin. Ze'ro jamiyat rivojlanishi uchun yosh avlodning har tomonlama ilimli, sog'lom, barkamol va yetuk bo'lib shakllanishida oila va ta'lim muassasalarining o'rni katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/-5085887>
3. Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослари: пед. фан. номз. ...дисс. — Тошкент, 2001.
4. Х.Мамадалиева. Ўзбекистонда оила ривожланишининг ижтимоий-демографик хусусиятлари. дис. ... иқт. фан. доктори, Toshkent 2019. — Б. 314. // <https://diss.natlib.uz/tanishish/3fdaf1f1-0f29-4c7d-a139-28c23d5423bc>
5. Жуманазаров У.А. Алломаларимиз ижоди ёрдамида ўқувчиларга таълим-тарбия бериши // «Абай Қўнонбеов ва шарқ мутафаккирларининг педагогик қараишлари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. — Жиззах, 2020.
6. Мўминова Л.Р., Реджабаева М.З., Махмудова Д.А., Холиқова М.Қ., Рахимова С.О., Ярашева Ш.А. Иқтидорли болаларни тарбиялаида ота-оналик кўникмаларини шакллантириши: услубий қўлланма. — Тошкент, 2020. — 36 б.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq: risola. —Toshkent, 2004. — 96 б.
8. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оилани боиқариши тартиблари . — Тошкент, 2000. — 112 б.
9. Кайковус. Қобуснома. — Тошкент, 2016. — 224 б. // В.Малолат. "Qobusnoma" asarida yoshlar tarbiyasi. // <https://uzhurriyat.uz/2017/09/07/qobusnoma-asarida-yoshlar-tarbiyasi/>